

**NEMIS VA O'ZBEK TILIDAGI YURIDIK TERMINLAR BO'YICHA
TARJIMADA TARJIMONNING SOXTA DO'STLARI MUAMMOSI**

Urganch davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Turabayeva Muxlisa Rasulbekovna

turabayeva_muxlisa@gmail.com

“Tarjimonning soxta do'stlari” tushunchasi tilshunoslar tomonidan turlicha izohlaniladi. Tarjimonning soxta do'stlari fenomeni tilga oid bo'lib, fonetik jihatdan o'xshash bo'lgan so'zlar bilan bog'liqdir. Bunday atamalarning hozirgi kunda maxsus qo'llanma va lug'atlari mavjud, til o'rganuvchi buni yod olishi darkor.¹

Tarjimonning soxta do'stlari atamasi Maksim Koessler va Jule Derokquiny orqali tilshunoslikka kiritilgan. Bu tushuncha nemis tilida “*falsche Freunde des Übersetzters*” deb nomlanadi. Nemis tilidagi die Familie termini oila degan ma'noni beradi. Die Familie atamasi nemis tiliga lotin tilidan kirib kelgan va faqat oila degan ma'noda ishlatiladi. Masalan, *eine dreiköpfige Familie, reiche Familie, eine Familie gründen*. Ushbu termin nafaqat nemis tilida balki boshqa tillarda ham oila ma'nosida ishlatiladi, o'zbek tilimizda esa ism familiya ma'nosida keladi, ya'ni tillararo solishtirilganda, shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'ladi. Ikkala termin ham huquqshunoslikda keng qo'llaniladi. Familiya o'zbek tiliga ham lotin tilidan o'zlashgan termin hisoblanadi. Familiya (lotincha-familia – oila)- bola tug'ilganda, farzandlikka olinganda, oldingi familiya o'zgartirilganda, nikohdan naslga o'tadigan oilaviy nom. Odatda, shaxs otlariga qo'shilib kelib, shu shaxsning naslini bildiradi.²

2. Polisemiya

Bu turga o'zbek va nemis tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni kiritish mumkin, bunda ayrim ma'nolari mos keladi, masalan:

¹ Artur Dariusz Kubacki „When will I become a schnitzel? –i hope never.“ Echte und falsche Freunde des Übersetzters in der Translationsdidaktik, Comparative Legilinguistics International Journal for Legal Communication, Editorial Office 2017, S.2

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005)

www.tadqiqotlar.uz

das Organ

das Organ – 1.ein Teil des Körpers, der eine spezielle Funktion hat. 2. Eine Zeitung oder Zeitschrift, die den Zielen einer Organisation dient und von ihr herausgegeben wird. z.B. Partei-, Verein-. 3. Eine Abteilung (z.B. einer Regierung oder Verwaltung) für bestimmte Aufgaben 4.gesp. Stimme.³

Bundan ko'rinadiki, nemis tilida das Organ atamasining 4 xil ma'nosi mavjud, 1. tanadagi a'zo; 2. tashkilotlardagi gazeta yoki jurnallar; 3. hukumat bo'limi; 4. so'zlashuv tilida ovoz

O'zbek tilidagi ma'nolari:

1. Odam yoki hayvon tana a'zosi.
2. muassasa, tashkilot.
3. Biror bir partiya, tashkilot yoki muassasa tomonidan nashr qilinadigan va shu tashkilotning qarashlarini aks ettiradigan vaqtli matbuot.
4. *tex.* Mexanizm va mashinalarning ma'lum bir qismi.
5. musiqa asbobi.

Ushbu soxta do'stlar turkumiga asl kelib chiqishi lotin tiliga mansub bo'lgan o'zbekcha atamalar kiradi. Lekin bunda o'zbek va nemis yuridik terminlarining lotin tilidan olingani tarjimon uchun biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki ma'nolarning o'xshashgini xato talqin qilinishi mumkin. Bunda o'zbek tilidagi yuridik terminning ikkita ekvivalenti bo'lishi kerak – ularning kelib chiqishi biri nemis tiliga va biri lotin tiliga oid bo'lgan⁴.

Masalan:

Advokat – nemis tilida (*lotin tili orqali*)

Advokat – o'zbek tilida (*lotin tili orqali*)

Fürsprecher – nemis tilida *sof yuridik termin*

Ushbu terminlar ma'no jihatdan bir xil hisoblanadi. Fürsprecher nemis tilida Advokat terminining nemis tiliga oid bo'lgan sof terminidir. Demak, tillarni

³ Juristisches Wörterbuch Köbler, 2004, S.403

⁴ Agnieszka Pietrzak albumu: 5825Rechtsterminologie und Übersetzungsstrategien in Übersetzungen des polnischen Strafgesetzbuches ins Deutsche, Łódź 2021, S.79

qiyoslab o'rganadigan bo'lsak, ikkala tildagi bir xil termin boshqa ma'no va mazmunga ega bo'lishi ham mumkin.